

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/1 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик

Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## **МУНДАРИЖА**

### **07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) .....	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI .....	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR .....	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ .....	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI .....	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'arov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR .....	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) .....	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР .....	69-74
<i>Qurbanova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKHLARI VA ICHIMLIKHLARI .....	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida) .....	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ .....	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i>	
O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI .....	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i>	
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	96-101
<i>Eanova Nilufar</i>	
O'ZBEKİSTON-TURKİYA HAMKORLIGI VA UNİNG NATİJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) .....	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i>	
АФРОСИЁБДАГИ СҮФД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ .....	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i>	
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	118-124
<i>To'xtamisheva Fotima Musurmonovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i>	
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZEI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI .....	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i>	
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN .....	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i>	
O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA).....	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i>	
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI .....	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i>	
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI .....	156-161
<i>Курбанова Дилрабо Шерипбоевна</i>	
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ .....	162-172

<i>Zuxriddin Boltayevich Junaev</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) .....	173-181
<i>Mamatdiev Boxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON .....	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) .....	187-197
<i>Ibragimov Rahmon Ziyodullaevich</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СҮНГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: Дағн үдуми ва миграция масалалари .....	198-203
<i>Azamatova Gulmira Bajirbekovna</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-208
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI .....	209-215
<b>08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI .....	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKİSTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI .....	227-232
<i>Отабеков Отажон Гайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ .....	233-243
<i>Шакирова Фарғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ .....	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ .....	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI .....	270-278

<i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i>	
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI ....	292-296
<i>Худойназаров Фахрутдин Хаитович</i>	
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ .....	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI .....	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ....	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i>	
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ .....	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i>	
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS .....	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i>	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI .....	341-348
<i>Мусинов Дишод Султанович</i>	
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИННИНГИЖТИМОЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i>	
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ .....	360-368
<i>Абдиовохидов Мамуржон Авазхон ўғли</i>	
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i>	
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA .....	381-388
<i>Курбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ .....	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmukhammadovich</i>	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI .....	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i>	
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI .....	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i>	
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РА҆КАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ .....	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i>	
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ.	441-447
<i>Xamzayeva Dilfuza Samarovna</i>	
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI .....	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i>	
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ .....	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
INNOVATSION TADBIRLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI .....	468-479
<i>To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi</i>	
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'YIY INTELLEKT .....	480-485
<i>Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i>	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛANIШ ТАҲЛИЛИ .....	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI .....	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyorovna</i>	
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES .....	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA .....	507-512

**09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i>	
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR .....	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i>	
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ФОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ .....	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ФОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ .....	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i>	
YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR .....	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich</i>	
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI .....	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i>	
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI .....	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i>	
AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR .....	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i>	
OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI .....	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i>	
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKİSTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI .....	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i>	
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA .....	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i>	
ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI .....	582-586
<i>Аззамова Нилюфар Шухратовна</i>	
"АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ .....	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i>	
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA .....	592-596
<i>Nabiiev Mansur Jamxur o'g'li</i>	
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSİYASI .....	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI .....	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI .....	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i>	
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI .....	616-625
<i>Шоназаров Жамишид Шухратович</i>	
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ФОЯСИ .....	626-630
<i>Ҳамраев Сироҷ Абруевич</i>	
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАҶНАВИЯТИ .....	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i>	
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI .....	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i>	
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI .....	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i>	
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI .....	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI .....	656-661

*07.00.00-Тарих фанлари*

**Berdiev Jamshid,**  
Dotsent, Qarshi davlat universiteti

## **VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI**

**Annotatsiya.** Maqolada Qashqadaryo vohasidagi joy nomlarining shakllanishida etnonimlar va patronimlarning tutgan o'rni haqida tahliliy ma'lumotlar aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Qashqadaryo vohasi, kasb-kor, hunarmandchilik, etnik rangbaranglilik, etnonimlar, patronim.

---

**Berdiev Jamshid**  
Docent, Karshi State University

## **THE ROLE OF ETHNONYMS AND PATRONYMICS IN THE FORMATION OF OASIS PLACE NAMES**

**Abstract.** The article reflects analytical information about the role of ethnonyms and patronymics in the formation of place names in the Kashkadarya Oasis.

**Keywords:** Kashkadarya Oasis, profession, craft, ethnic colorfulness, ethnonyms, patronymic.

---

**Бердиев Жамшид,**  
Доцент, Каршинский государственный университет

## **РОЛЬ ЭТНОНИМОВ И ПАТРОНИМОВ В ФОРМИРОВАНИИ ТОПОНИМОВ ОАЗИСОВ**

**Аннотация.** В статье отражена аналитическая информация о роли этнonyms и отчеств в формировании топонимов Кашкадарьинского оазиса.

**Ключевые слова:** Кашкадаринский оазис, профессия, ремесло, этническая колоритность, этнonyms, отчества.

---

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N25>

**Kirish.** XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi Qashqadaryo vohasi aholisining tarkibi va etnotoponomik tarixini etnonimlar va patronimlar misolida qarab chiqish orqali voha tarixi bilan bog'liq bir qator masalalarga aniqlik kiritish mumkin. Xususan, Qarshi va Shahrishabz kabi nisbatan yirik shaharlarda birmuncha farqli, Kasbi, G'uzor, Koson, Chiroqchi kabi nisbatan kichik shahar va qo'rg'onlarda esa boshqacharoq holat ko'zga tashlanadi[1]. Sababi, yirik shaharlarda ko'proq aholining maishiy turmush tarzi (kasb-kor, hunarmandchilik, etnik

rangbaranglilik) bilan aloqador joy nomlari ko'proq uchrasa, vohaning qishloq va ovullarida, Qashqadaryoning yuqori va quyi havzasida, shuningdek, tog', tog'oldi, dasht va cho'l hududlarida etnotoponim va patronimlar nisbatan ko'p uchraydi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Qashqadaryo vohasi toponimiyasini o'rganish mobaynida toponimiya fanining bir qator usul va uslublariga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Tarix fanida etnografik, etnologik va etnotoponimik tadqiqotlar jarayonini o'rganishda toponomik ma'lumotlar muhim manba hisoblanadi.

Joy nomlarida tarixning ijtimoiy xususiyatlari ko'proq o'z ifodasini topadi. Bu holat Qashqadaryo vohasi nomlarida ham o'z tasdig'iga ega bo'lib, mintaqqa ijtimoiy hayotida yuz berayotgan hodisalar eng avvalo uning toponomiyasida ko'zga tashlanadi.

Qashqadaryo vohasi joy nomlarini shartli ravishda quyidagicha turlarga bo'lish mumkin[2]:

1. Geografik xususiyati (joylashuvi, past-balandligi, iqlimi va h.k.) bilan bog'liq joy nomlari: Kitob (Kifti-ob), Shahrisabz, Langar, Parg'uzza, Aral, Jenov, Jarquduq.
2. Tabiiy xususiyatlari bilan bog'liq joy nomlari: Olmazor, Qoratikan, Qorayantoq.
3. Aholisining kasb-kori bilan bog'liq nomlar: Charmgar, Bo'yrachi, Alachabop, Aspijallob, Baqirchi.
4. Gidronimlar: Qashqadaryo, Suvli, Haramjuy, Qorasuv, Obidida.
5. Etnotoponimlar: Mang'it, Uz, Saroy, Qo'ng'iroq, Uyshun, Barlos, Turk.
6. Antroponimlar: Buron-juz, Sherbek, Juybeknazar, Zulfiqor-ota, Imom-Yoqub, Xo'ja-Ilg'or.

Qashqadaryo vohasi etnonimlarga boy hudud hisoblanib, vohaning deyarli barcha hududlarida, xoh u tog' va tog'oldi zonalar, xoh dehqonchilikka mos unumdar yerlar yoki dasht va cho'l hududlar bo'lsin, joy nomlarining ko'pchiligin etnonimlar tashkil etadi. Yuqorida ko'rib o'tilganidek, Qashqadaryo vohasida eng ko'p toponimlar o'zbekcha etnonimlardan iborat bo'lib, birgina Qarshi bekligida "mang'it" urug'i bilan bog'liq o'nlab etnotoponimlarga duch kelinadi[3]: Oq-mang'it, To'q-mang'it, Chol-mang'it, Chavqay, Esaboy, Boyg'undi, Qo'ziqo'chqor, Nekuz, Guvalak, Qozoq va h.k. Vohada shunga o'xshash saroy, qo'ng'iroq, batosh kabi urug'larga aloqador ko'plab qishloq nomlari mavjud bo'lgan[4].

Shuningdek, bu davr Qashqadaryo vohasi joy nomlarining sezilarli bir qismi patronim va antropotoponimlar tashkil etishiga guvoh bo'lamiz. Xususan, kelib chiqishi asosan turkiy, forsiy, arabcha va qisman boshqa tillar bilan aloqador o'nlab joy nomlari vohaning barcha tumanlarida uchrab, qaysidir tumanlarda bu holat ko'pchilikni tashkil etishi, qaysidir tumanlarda esa aksincha ekanligiga duch kelish mumkin. Masalan, Qarshi, Kasbi, Shahrisabz kabi yirik aholi maskanlarida *xo'ja*, *eshon*, *shayx*, *mir*, *mullo* kabi diniy toifa vakillarining[5] (*Shayxali*, *Xo'ja-Xayron*, *Xo'ja-jarroh*, *Xo'ja-Muborak*, *Xo'ja-Qarluq*, *Mirmiron*), *xon*, *bek*, *qozi*, *mirzo* singari boshqaruvchi toifa vakillarining (*mas.* Xonobod, Xontepa, Beklar, Qozigo'zar) ismlari qatnashuvchi joy nomlari ko'proq uchrasa[6], vohaning ko'plab tumanlarida esa bir qismi muayyan bir shaxs ismi, bir qismi esa biror urug' nomi (etnonim)ni bildiruvchi kishi ismlari bilan ataluvchi aholi manzillariga duch kelinadi. Masalan, Bo'ri-Batosh, Bo'ri-Metan, Bo'rixona va h.k[7].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, Qashqadaryo vohasidagi aholi maskanlarining nomlanishida etnik xususiyatlar ancha katta o'rinn tutadi. Ularning muhim bir qismi o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning shakllanishiga katta hissa qo'shgan urug' va ular

tarkibidagi tarmoq urug'lar yoki to'por (yoki to'p)larga aloqadordir. Shuningdek, urug' tarmoqlari va to'porlarning nomida patronimlar sezilarli bir qismni tashkil etadi. Bundan tashqari, bu toifaga yuqorida keltirib o'tilganidek ijtimoiy guruhlar bilan bog'liq nomlarni ham kiritish mumkin. Qashqadaryo vohasidagi bunday etnotoponim va antroponimlarning ko'lamiga nazar tashlansa, ular Qarshibekligida nisbatan ko'pchilikni tashkil etishi, Shahrisabz beklikida, ayniqsa, beklikning markazida esa ko'proq ijtimoiy guruhlar bilan bog'liq joy nomlarining salmog'i yuqori ekanligini ko'rish mumkin[8]. Biroq bu xulosa nisbiy bo'lib, vohadagi har uchala beklikda ham joylarga qarab bu nisbat farq qilishi, ayrim bekliklarda ulardan birining ko'proq, birining esa nisbatan kamroq uchrashi payqaladi.

**Tahlil va natijalar.** Qashqadaryo vohasidagi etnonimlarni "92 bovli o'zbek urug'i" ro'yxatlarida keltirilgan urug' nomlari bilan solishtiradigan bo'lsak[9], ro'yxatdagi etnonimlarning katta ko'pchiligi qishloq, mahalla yoki go'zar nomi sifatida uchrashi ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari, ushbu ro'yxatda uchramaydigan, biroq biror o'zbek urug'i yoki ro'yxatdagi urug'lardan birining tarmog'i sifatida bilinadigan *achamayli, qiyanni, olato'n, so'pi* va hokazolarning voha bo'yab keng tarqalganiga duch kelamiz.

Buxoro amirligi davridagi Qashqadaryo vohasi joy etnonimlarini Qarshibekligi misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, amlokliklar nomida etnik atamalar uchramasligi, biroq amlokliklarga qarashli qishloq nomlarida etnonimlar ko'pchiligin tashkil etganiga guvoh bo'lamiz. Asosan amirlikka tegishli turli hujjatlar hamda rus elchi va sayyoohlari asarlaridagi ma'lumotlardan Qarshibekligi Beshkent – Davr-qo'rg'on, Fayzobod, Xonobod, Potron, Fazli, Qamashi, Juynav, Kasbi, Chim, Parg'uza, Koson, Fulodi, Daha-i miyona, Maymanoq kabi 14 ta amlok (mulklik)ka bo'linib boshqarilgani va ularning har birida bir necha o'nlab qishloqlar mavjud bo'lgani anglashiladi[10].

Shuningdek, Qarshibekligidagi qishloq nomlaridan bo'lib, mang'it urug'inining tarmoqlari bo'lgan Chavqay, To'lg'a, Qozoqli kabi joy nomlarini ham etnotoponimlar sifatida keltirish mumkin[11].

Qashqadaryo vohasidagi antroponim yoki patronimlarga misol sifatida Qarshibekligidagi qishloqlar nomini ko'rsatish mumkin. Masalan, Qutb-shayx, Mavsum-obod (Maxsum-obod), Hoji-Xizir, Sho'ir-xo'ja, Mirmiron, Yulum-shayx (Beshkent – Davr-qo'rg'on), Fayzobod, Jaloliddin, Shayx-Shibli (Fayzobod), Sherali (Xonobod), Aziz-obod, Qodir-obodi Xo'ja-Xayron (Juynav), Rayim-sufi (Fulodi), Halima, Xo'ja-Muborak (Maymanoq) kabi aholi maskanlarining arabcha, arabcha-forscha, arabcha-turkiycha aralash antroponim va patronimlar ekani ma'lum[12].

Qashqadaryo vohasidagi ijtimoiy toifa vakillari bilan bog'liq joy nomlarining nisbatiga vohadagi bekliklar misolida qarab chiqilganda, ayrimlarida bunday nomlar ko'proq, ayrimlarida esa nisbatan kamroq bo'lgani ko'rindi. Masalan, Qarshibekligida "xo'ja" komponentli topominlar ko'proq bo'lsa, Chiroqchi bekligida bu holat unchalik ko'zga tashlanmaydi[13]. Sababi, Qarshibekligi nisbatan qadimiy aholi maskanlarini o'z ichiga olgan hududda joylashgan bo'lsa, Chiroqchi bekligida ko'pchilik aholining so'nggi o'rta asrlarda o'troqlashgani va ko'pchilik joy nomlarining asosan etnonimlar bilan bog'liqligidir. Shunga qaramay, etnotoponimlar masalasida Qarshibekligi Chiroqchiga qaraganda nisbatan ko'pchilikni tashkil etishini aytib o'tish kerak. Boisi, so'nggi o'rta asrlarda Qarshibekligining ma'muriy markazi Qarshi shahri atroflarida o'zbeklarning mang'it urug'i vakillarining o'troqlashuvi kuchayadi va ushbu urug' tarmoqlari bilan bog'liq o'nlab qishloqlar paydo bo'ladi.

Bu holat faqatgina Qarshi shahri yaqinlarida emas, beklikdagi amlokliklarning sezilarli bir qismida kuzatiladi. Yuqoridagi jadvalda ko'rib o'tilganidek, Fazli, Potron, Fulodi, Parg'o'za amlokliklarida mang'itlar bilan bog'liq bir qator etnotoponimlar uchraydi.

Qarshi bekligidagi etnotoponimlarning ko'pchiligi o'zbek urug'lari nomlari bilan, kichik bir qismi esa turkman urug'lari bilan bog'liq bo'lib, Juynav amlokligidagi Chandir qishlog'i bunga misol bo'la oladi[14].

Qashqadaryo vohasidagi etnonimlar va patronimlar masalasida yanada aniqroq tasavvur hosil qilish uchun vohaning turli hududlaridagi aholi maskanlarining nomlanishini o'zaro taqqoslash kerak bo'ladi. Bu masalada o'zining geografik joylashuvi va tabiiy shart-sharoitlariga ko'ra Qarshi bekligidan birmuncha farqli bo'lgan Chiroqchi bekligiga murojaat qilinganda quyidagicha holat ko'zga tashlanadi. Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chiroqchi bekligida Besh-chashma, Beglamish, Chiyal, Qora-tepa, Tosh-arig', Qayirma, Xo'ja-qo'rg'on deb nomlangan 7 ta amloklik bo'lib, ulardan har biriga qarashli qishloqlarning nomi asosan Buxoro amirligi Qushbegi arxivi hujjatlarida[15], qisman esa rus mualliflari asarlarida[16] keltirib o'tilgan.

Ushbu amlokliklar nomini Qarshi bekligidagi amlokliklar nomi bilan solishtirganda Chiroqchi bekligidagi nomlarning deyarli barchasi turkiy (o'zbek)cha ekani diqqatni o'ziga tortadi. Jumladan, Besh-chashma – turkiy-forsiy gidronim, Beglamish – turkiy etnotoponim, Chiyal – turkiy etnotoponim, Qora-tepa – turkiy tabiiy-geografik nom, Tosh-arig' – turkiy gidronim, Qayirma – turkiy tabiiy-geografik nom, Xo'ja-qo'rg'on – forsiy-turkiy antroponimlardir. Qarshi bekligida esa 14 ta amloklikning sezilarli bir qismi, ya'ni 10 tasi sug'diy yoki forsiy – Beshkent, Dahai miyona, Fulodi, Juynav, Parg'uza, Koson, Patron, Kasbi, Fazli, Maymanoq, qolgan 4 tasi turkiy – Xon-obod, Chim, Qamashi, 1 tasi esa arabcha – Fayzobod kabi etnonimlarga aloqador bo'lmagan aholi maskanlari bo'lgani ayon bo'ladi.

Chiroqchi bekligida yuzlab qishloqlar bo'lgani sababli ular orasida Qarshi bekligiga qo'shni bo'lgan Beglamish amlokligidagi qishloqlarni misol sifatida keltirib o'tamiz. Yozma manbalarda aniqlanishicha, bekligidagi amlokliklarning har birida kamida 15-20 tadan qishloq bo'lib, Beklamish amlokida quyidagicha qishloqlar mavjud bo'lgan[17]:

1. Qora-yantoq, 2. Jarquduq, 3. Xushakli (Xushali), 4. Moylijar, 5. Boybo'ri, 6. Qozon-chiqdi, 7. O'tali, 8. Amin-qishloq, 9. Barot-qishloq, 10. Karvon-qishloq, 11. Chibot, 12. Go'r-quduq, 13. Qora-kamar, 14. Sho'r-bozor, 15. Beglamish-ota, 16. Do'ng-arig', 17. Tugmachi, 18. Arab-kamar, 19. Qo'sh-mo'la, 20. Qo'sh-quduq, 21. Olato'n, 22. O'tamali[18].

Biroq bu holat Chiroqchi bekligining boshqa amlokliklarning ko'pchiligidagi birmuncha boshqacha bo'lib, Qarshi bekligida bo'lgani kabi Chiroqchi amlokliklarning ko'pchiligidagi qishloqlarning nomlanishida etnonimlar ancha ustuvor bo'lgani ko'zga tashlanadi. Bunday toponimlarni quyidagicha turlarga bo'lish mumkin:

Birinchisi, "92 o'zbek urug'i" ro'yxatidagi yirik urug'lar bilan bog'liq etnotoponimlar: 1. Do'rman, 2. Juz (yuz), 3. Mang'it, 4. Nayman, 5. Saroy, 6. Tog'chi, 7. Qipchoq, 8. Qirg'iz, 9. Qozoq, 10. Qo'ng'iroq, 11. Qutchi (qushchi), 12. Xitoy, 13. Uz, 14. Uyshun, 15. Chiljuyut, 16. Chuyut[19].

Ikkinchisi, "92 o'zbek urug'i" ro'yxatida qayd etilmagan yoki ro'yxatidagi biror urug' tarkibida bo'lgan etnotoponimlar: 1. Aymoq, 2. Boybo'ri, 3. Gala, 4. Nayman-saroy, 5. Olato'n, 6. Oq-to'nli, 7. To'qmor, 8. Qiyoqi, 9. Qozoqli, 10. Qora-baroq, 11. Qora-buyroq, 12. Qora-telpak, 13. Qora-qipchoq, 15. Chanchqli, 16. Chibot, 17. Chichg'onchi, 18. Chuvulloq, 19. Shagarak, 20. Ersari, 21. O'ymovut, 22. O'tamali[20].

Chiroqchi bekligi bilan bog'liq ushbu aholi maskanlari nomlarini yirik o'zbek urug'lari va urug' ichidagi tarmoq urug' nomidan yasalgan nomlar bilan qo'shib hisoblaganda, beklikda 40 ga yaqin etnotoponim bo'lgani ayon bo'ladi. Bu esa XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Chiroqchi bekligida mavjud aholi maskanlarining sezilarli bir qismi etnonimlardan yasalganini ko'rsatadi.

**Muhokama.** XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Qashqadaryo vohasida mavjud bo'lgan aholi maskanlarini, ayniqsa, etnonim va patronimlarni Qarshi va Chiroqchi bekliklaridan boshqa yana G'uzor bekligi misolida qisqacha ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyidagicha holatga duch kelamiz. Bu davrda ushbu beklikda Eski-bog', Gurshak, Yorti-tepa, Urayi-kalon, Urayi-xurd, Tangi-haram, Afg'on-bog', Garmiston va Qamay kabi 9 ta amloklik mavjud bo'lib. Ular orasida dastlabki 3 tasi qishloqlar soni 20 dan ortiq bo'lgan ma'muriy birliklar edi. Qizig'i shundaki, Qarshi bekligidagiga o'xshab G'uzor bekligida ham amlokliklar nomida Qamaydan boshqasida etnonimlarning izini ko'rmaymiz. Shuningdek, ushbu beklikda ham amlokliklar nomida ayrim toponimlarni hisobga olmaganda (Yorti-tepa, Qamay, Ura) turkiy negizdagi nomlarga duch kelmaymiz. Shunga qaramay G'uzor bekligidagi yuzlab qishloq nomlari turkiy asosga egaligi va ularning sezilarli bir qismini yirik o'zbek urug'lari bilan bog'liq qishloq nomlari tashkil etishiga ko'zimiz tushadi. Masalan, beklikda Saroy, Qo'ng'iroq, Batosh, Qovchin kabi o'rta asrlarda mintaqqa tarixida o'ziga xos o'rinn tutgan urug'larga aloqador etnotoponimlarni uchratish mumkin[21].

Umuman olganda, G'uzor bekligida Kaltatoy, Turk, Xo'ja-Balos (Barlos), Uyg'ir, Qo'ng'iroq, Major, Qirg'iz-saroy, Cho'mishli, Sart-bukuvli, Qaychili, Batosh, Qovchin, Kerayit, Harduri, Qozoq, Saroy, Quchi (Qutchi), Ulus, Qo'sh-tamg'ali, Qishliq kabi o'nlab etnonimlardan yasalgan joy nomlari mavjud bo'lgan. Ularning katta bir qismi "92 bovli o'zbek urug'i"ga kiruvchi etnonimlar bo'lsa, sezilarli bir qismi saroy, qo'ng'iroq kabi urug'larning tarmoq urug'lari sifatida qayd etiladi. Masalan, Ulus, Qaychili kabi qo'ng'iroq urug'inining tarmoqlari[22]. Shu o'rinda aytib o'tish kerak, qo'shni Qarshi bekligidan farqli holda G'uzor bekligida Turk, Barlos, Kaltatoy kabi Shayboniyalar davrida (1501-1601) Dashti Qipchoqdan kelgan ko'chmanchi o'zbek urug'laridan bo'limgan[23], ko'proq Chig'atoy ulusi va Temuriylar davri, balki undan ham oldingi davrlarga tegishli etnonimlar uchraydi.

**Xulosa.** Xullas, Qashqadaryo vohasidagi etnonim va patronimlarning voha hududida paydo bo'lishi Markaziy Osiyoda kechgan tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning ayrimlari qadimgi davr va ilk o'rta asrlarga to'g'ri kelsa, sezilarli qismi esa o'rta asrlarga, ayniqsa, so'nggi o'rta asrlardagi tarixiy jarayonlar bilan bog'liqdir. Vohaning nisbatan o'troq va shaharsozlik madaniyati qadimiylar bo'lgan qismlaridagi joy nomlarining sezilarli qismini sug'diy joy nomlari tashkil etsa, vohaning tog'oldi, dasht va cho'l hududlarida turkiy etnotoponimlardan iborat ekani ma'lum bo'ladi.

### Адабиётлар/Литература/References:

- Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.) / Материалы к исторической географии Средней Азии. Под. Ред. А.Р. Мухаммеджанова. – Т.: Университет, 2001. – С. 287-313.
- Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 287-313; Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 8-36; Марқаев К. Ўзбек этнонимлари. – Б. 59-87.

3. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 160-161; Марқаев К. Ўзбек этнонимлари. – Б. 57, 77, 80.
4. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 287-313.
5. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – Т.: АН УзССР, 1958. – С. 121-125.
6. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 55, 272-273, 279-285, 318, 377.
7. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 75.
8. Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства. – С. 135-136.
9. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа» // Средняя Азия в древности и средневековье. – М.: Наука, 1977. – С. 165-176.
10. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. – СПб., 1843. – С. 65; Вяткин В.Л. Материалы к исторической географии Самаркандского вилаета // СКСО, 1902. Вып. VII. – Самарканд, 1902. – С. 22, 32.
11. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 254, 308, 375.
12. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 292-296.
13. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 287-305, 306-307.
14. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 145, 290; Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 290.
15. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX – начало XX в.). – С. 306-307.
16. Евреинов. Рекогносцировка пути через Джамский перевал на Гузар и на Карши. 1887 г. – С. 112-147.
17. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XX в.). – С. 307.
18. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XX в.). – С. 307.
19. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 «племен илатийа». – С. 165-176.
20. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XX в.). – С. 307.
21. Населенные пункты Бухарского эмирата (конец XIX - начало XX в.). – С. 297-304.
22. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Б. 352.
23. Кармышева Б.Х. Этнографическая группа “тюрк” в составе узбеков (Историко-этнографические данные) // Советская этнография. 1960, № 1. – С. 3-22.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/1 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
мастъалияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**  
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-  
уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Боғланиш учун телефонлар:**  
(99) 602-09-84 (telegram).